Advances in Science and Humanities



Advances in Science and Humanities, 2026, 95–99

doi: 10.70728/human.v02.i04.022
Volume 02, Issue 04
ISSN: 3060-5393
Paper

PAPER

EVFEMIZMLARNING UMUMTILSHUNOSLIKDAGI TADQIQI

Ismailova Xilola Inomovna[1,*]

[1]Qo'qon davlat universiteti, PhD

* inamovna4909gmail.com

Abstract

Til ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilar o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarni yuzaga chiqaradi. U olamni anglash, borliqni idrok etish va ijtimoiy aloqalarni ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois jahon tilshunosligida tilshunoslarning asosiy e'tibori til tizimi va uning tarkibiy tuzilishi, mazmuniy maydoni va uni yuzaga chiqaruvchi leksik-lisoniy birliklar, bu birliklarning ifoda imkoniyatlari hamda kommunikativ xususiyatlarini o'rganish masalalariga qaratildi. Tilshunoslikning tarihiy bosqichlarida tilshunos olimlar tomonidan "til va borliq", "til va tafakkur", "til va inson" omili xususida qator tadqiqotlar yaratildi. Bu ilmiy izlanishlarda tilning o'ziga xos jihatlari, ijtimoiy, madaniy, estetik va kommunikativ xususiyatlari tadqiqiga keng e'tibor qaratildi. Shu o'rinda aytish mumkinki, bugungi kun tilshunosligida turli xalqlarning muloqot madaniyati va til strategiyalarining umumiy manzarasini yuzaga chiqaruvchi leksik-lisoniy birliklar, xususan, evfemizmlarni lingvomadaniy aspekda o'rganish davr talabiga aylandi. Chunki xalqlar madaniyati, urf-odatlari va madaniy o'ziga xos xususiyatlarini namoyon bo'lishida evfemizmlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Key words: evfemizm, disfemizm, tabu, lingvopragmatika, semantik transformatsiya, nominativ vositalar, perifraz, konnotativ ma'no, pragmatik ma'no, nutq etiketi

Kirish

Evfemizmlar o'ziga xos lisoniy ifoda bo'lib, nafaqat adabiy til, balki kundalik hayotda kommunikativ munosabatlarni tartibga soladi va insonlar o'rtasidagi muloqotni madaniyat normalariga asoslangan holda yuzaga chiqishini ta'minlaydi. Evfemizmlar o'zining mavhumligi bilan boshqa lisoniy hodisalardan farq qiladi. Turli xalqlar tillarini umumlashtirish, har bir madaniyatga xos mavzularining qiyin va nozik jihatlarini hal etishning o'ziga xos usullari borligini ko'rsatadi. Bu esa bugungi kun tilshunosligida ushbu til birliklarini o'rganish dolzarb ekanligini belgilaydi.

Compiled on: March 4, 2026.
Copyright:©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) 4.0 license.

Buning yorqin misoli sifatida ingliz tilshunosi J.Rousonning “Evfemizmlar va boshqa nutq shakllari lug‘ati” deb nomlangan fundamental asarini qayd etish mumkin. Ushbu lug‘at ingliz evfemizmlarini o‘rganish sohasidagi birinchi ilmiy manba hisoblanadi. Unda evfemizm tushunchasi va har xil turdagi evfemizmlarning tarixiy konteksti, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ta’riflari va tasniflari yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyalar

Amerikalik olimlar J.Bilan Nyuman va K.Silverning “Xushmuomala so‘zlar: evfemizmlar” lug‘atida ham ingliz evfemizmlarining lingvistik xususiyatlari keng tahlil qilingan. Bu lug’atda evfimizmlar turli tasniflarga ko‘ra tizimlashtirilgan va har bir atamaning etimologiyasi batafsil bayon qilingan. Olimlar o’z tadqiqotlarida evfemizmlarning qo‘llanish usullarini turli aspektlarda yoritib berganlar va bu nashr bugungi kunda shu sohadagi tadqiqotlar uchun ilmiy asos sifatida xizmat qilmoqda.

Tilshunoslikda evfemizm hodisasi XX asr boshlarida keng o’rganildi. Bu davrda J.Vandriyes va L.Bulaxovskiyning evfemizmlar tabiati haqidagi kuzatishlari va ilmiy fikrlari ushbu lingvistik hodisaning zamonaviy tavsiflarini shakllanishida ilmiy asos bo‘ldi.

Tabu va evfemizmlar tarixiy etnografik hodisa sifatida XIX asr boshlarida jahon tilshunosligida, XIX asr oxirida turkologiyada o‘z aksini topa boshladi. XX asrning 50-yillaridan boshlab ular qozoq, qirg‘iz, turkman, o‘zbek tillarida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganila boshlandi. Tabu va evfemizmlarni ko‘pgina turkiy xalqlar, xususan, qozoq, turkman, oltoy, ozarbayjon, o‘zbek tilshunos olimlari o‘rgandilar.

Tabu va evfemiya hodisalarini fanda to‘liq o‘rganishga o‘zining katta hissasini qo‘shgan olimlardan qozoq tilshunosi, evfemist, professor Adil Ahmetov “Qazaq tilindegi tabu men evfemizmder”,“Turki tillerindegi tabu men evfemizmder” nomli dissertatsiyalari va boshqa qator ilmiy maqolalarida turkiy tillardagi tabuning etnolingvistik asoslari, shu bilan bog‘liq evfemizmning tasnifi, hosil bo‘lish usullari, ularning til leksik qatlamidagi o‘rni, nutq madaniyatini boyitishdagi mental belgilari haqida batafsil ma’lumotlar berdi. Olim mazkur tadqiqot ishida madaniy kontekstlarning tabu va evfemizmlarning shakllanishiga ta’siri masalalarini o’rgandi va bu hodisalarni har tomonlama tahlil qilish muhimligini asoslab berdi.|Tadqiqot ishida evfemizmlar etnolingvistika va nutqshunoslik kabi fanlar kesishgan nuqtasida o’rganilib, ularga turli xalqlarning madaniy va ruhiy munosabatlarini tushunishga hissa qo‘shadigan komponentlar sifatida qaraldi. Bu esa, o‘z navbatida, lingvistik tadqiqotlar yaratilishida ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Ta’kidlash kerakki, tabular va evfemizmlar nafaqat alohida tillar darajasida muhokama qilish uchun qiziqarli mavzu, balki madaniy tilshunoslik kontekstida chuqur o‘rganish uchun muhim obyektlardir. Bu qardosh xalqlarimiz tillari va madaniyatlaridagi o‘xshash hodisalarni yanada o‘rganish dolzarbligi va zarurligini ta’kidlaydi, bu esa, turli til an’analari o‘rtasida ilmiy muloqot va bilim almashish uchun yangi istiqbollarni ochadi.

O‘zbek tilshunosligida ham tabu va evfemizm masalalari doirasida tilshunoslar N.Ismatullayev, D.Babahanova, A.Omonturdiyev, M.Mirtojiyev, N.M.Jabborov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, N.Ismatullayev o’zining “Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar”(1963) , “Evfemistik vositalarning funksional xarakteristikalari”(1997) mavzusidagi ilmiy izlanishlarida evfemizmlarning o’ziga xos jihatlarini tadqiq etgan. U birinchi bo‘lib, tabu va evfemizm hodisasiga doir ko‘plab ma’lumotlar to‘plagan, ularga munosabat bildirib umumlashtirgan, tabu va evfemizm hodisasini yoritgan, ilmiy va amaliy jihatdan asoslagan . Olimning ilmiy izlanishlari nafaqat o‘zbek tilshunosligi uchun balki butun turkiy tilshunoslikda evfemizm muammosiga yangicha tus bergan ishlardan biri hisoblanadi.

N.Ismatullayev “o‘zbek tilidagi evfemizmlarning paydo bo‘lish sabablarini, guruhlaydi (masalan, zaharli hashoratlar nomi o‘rnida qo‘llanadigan evfemizmlar, yirtqich hayvonlar nomi o‘rnida qo‘llanadigan evfemizmlar, xotinqizlar tilida ishlatiladigan evfemizmlar kabi) va har bir sotsial qatlam nutqida qo‘llanadigan evfemizmlarning muomaladagi ahamiyatini, lug‘at tarkibini boyitishdagi qimmati” ni tahlil qilib

beradi. Bu ish shu soha bilan bog‘liq masalalari, jumladan, evfemizmni keyingi bosqichda o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qilganligi ko‘rsatadi.

1983-yilda D.Babahanova tomonidan birinchi marta “O‘zbek tili stilistikasi asoslari” nomli oliy maktab uchun yaratilgan darslikda tabu va evfemizm mavzusi haqida keng ma’lumotlar berilgan. Unda mualliflar kontekstual va individual evfemizmlar va uning nutq vositasi sifatidagi ahamiyati haqida nazariy fikrlar berganlar.

Tilshunos olim A.Omonturdiyev ham “O‘zbek nutqining evfemistik asoslari” nomli monografiyasi hamda “So‘z lug‘ati”, “So‘z yasash san’ati” va “O‘zbek tilining qisqacha evfemistik lug‘ati” kabi asarlarida evfemistik vositalarning madaniy-ma’rifiy xususiyatlarini yoritgan.

Tilshunos M.Mirtojiyevning “O‘zbek tili semasiologiyasi” nomli monografiyasida tabu va evfemizm hodisalari o‘rtasidagi munosabat, ularning o‘rganilish tarixiga alohida e’tibor qaratilgan. Olim “evfemik ma’noning hosila ma’no ekanligini, bu hosila ma’nolar metaforik, metonimik yo‘llar bilan paydo bo‘lishini, sinekdoxa va vazifdaoshlik asosida evfemik ma’no yuzaga kelmasligi” ni alohida ta’kidlaydi. Bu fikrlarga qo‘shilmagan holda A.Omonturdiyev o‘z tadqiqotlarida metaforik, metonimik yo‘llar bilan bir qatorda sinekdoxa va vazifadoshlik asosida ham evfemizm yuzaga chiqishi mumkinligini isbotlab beradi.

Natijalar va muhokama

Shuni alohida aytish mumkinki, evfemizm boshqa tillarda ham mavjud bo‘lib, ularning qo‘llanishi bir tildagi qo‘llanishdan farq qilishi mumkin. Shu ma’noda so‘zlarning evfemik qo‘llanish ko‘lami ancha keng ekanligini, tilshunoslikda uni talqin qilishda yagona qoida mavjud emasligini alohida ta’kidlash kerak. Aksariyat olimlarning e’tibori evfemizmning taqiqlash va niqoblash funksiyasini bajarish xususiyatiga ega ekanligiga qaratilganiga qaramay, ular evfemizmning yagona talqini (ma’nosi) mavjud emasligini ham uqtiradilar.

Ushbu ilmiy tadqiqotlarning uyg‘unligi bizga evfemizatsiyaning lingvistik va madaniy jihatlarini chuqurroq tushunish, shuningdek, ingliz tiliga o‘xshashliklar fonida ularning o‘zbek tilida qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

So‘zdagi denotativ tushuncha evfemizatsiya qilinganda so‘zlovchining irodasini ifodalovchi, uni mohiyatidan uzoqlashtirmasdan, nutq talablariga mos keladigan boshqa obrazli vositalar yordamida tanlab ifoda etish talab etiladi. Vaqt o‘tishi bilan evfemizmlar qisman til faktiga, keyinchalik uning leksik birligiga aylanadi. Evfemizm – tabu so‘zlar o‘rnida qo‘llaniladigan, ularning o‘rnini bosuvchi leksik birlik. Evfemizmlar inson tilidan foydalanish jarayonida eng keng tarqalgan hodisalardan biri bo‘lib, u odamlar o‘rtasidagi muloqotni yaxshilashga xizmat qiladi, muloqot jarayonini yanada qiziqarli va suhbatni yanada samarali bo‘lishiga yordam beradi.

O‘zbek leksikologiyasida evfemizmlarning lingvomadaniy tadqiqiga, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy xarakterga ega bo‘lgan matnlar kontekstiga jiddiy e’tibor qaratiladi. Tilshunos olim A.Omonturdiyev “evfemizmlarni etimologik, ijtimoiy-madaniy aspektda o‘rganish kerak” , deb hisoblaydi.

Vaqt o‘tishi bilan tilning rivojlanishi, umumbashariy muammolarning yechimi, stilistikaning notiqlik maqomiga ko‘tarilishi, jumladan, kasbiy nutqning barcha sohalari – chorvadorlar, ovchilar, dehqonlar, huquqshunoslar, jurnalistlar, diplomatlar, baxshilar, shifokorlar, sportchilar, tikuvchilar, to‘quvchilar, temirchilar va boshqalar nutqi bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borildi, xususan, ularning evfemizmlarini yozib olish kabi muammolarni hal qilish davr talabi darajasiga ko‘tarildi. A.Omonturdiyevning “Kasb nutqi evfemizmlari” nomli doktorlik dissertatsiyasida chorvadorlar nutqiga xos evfemizmlar ularning turmush tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan bog‘liq holda paydo bo‘lganligi qayd etiladi .

Boshqa bir qator tilshunoslarning tadqiqot ishlarida ham evfemizm haqida fikrlar bildirilgan. Masalan, H.Shamsiddinov so‘zlarning evfemik funksional –semantik sinonimlari haqida fikr bildirsa , A.Mamatov o‘z doktorlik dissertasiyasida frazeologizmlarning evfemik va disfemik yasalishiga alohida e’tibor qaratadi. Shuningdek badiy til bilan bog‘lig ayrim ishlarda so‘zlarning evfemik ma’no xususiyatlariga e’tibor qaratilgan. “ Boburnoma ” leksikasini maxsus o’rgangan olima Z.Xolmanova unda

qo‘llangan evfemizmlar haqida ba’zi fikrlarni bildirar ekan“,evfemik ifodalar eski o‘zbek adabiy tili leksikasining semantik tarkibi,emotsional-ekspressiv xususiyatlari,muallifning lingvistik mahorati,badiy tasvir usuli haqida asosli tasavvur beradi. Ishda o‘lmoq tushunchasining evfemik birliklari tahlil qilinib,uning ma’lum semantik-stilistik maqsadlarda qo‘llanuvchi shakllari tavsiflangan”.

Tilshunos professor Shoira Usmonovaning “tarjimaning lingvomadaniy aspektlari” asarida tabu, evfemizm va disfemizm haqida o‘zbek, rus, turk, koreys tillariga oid bir qator aniq misollar bilan izohlanadi . Tabu madaniy, diniy, irim yoki noxushlik uyg‘otishi nuqtai nazaridan muayyan xatti-harakatlar yoki ayrim so‘zlar qo‘llanishini taqiqlashdir”. Masalan, o‘zbeklarda qiblaga oyoq uzatib o‘tirish, yotish, mog‘ullarda pichoqni olovga tiqish taqiqlanadi. Bular diniy nuqtai nazaridan belgilangan tabular. “Tabular ikkiga:

etnografik (o‘zbeklarda supurgini, o‘qlovni tik qo‘ymaslik, birovning orqasidan supurmaslik, axlatdan xatlamaslik, qaychini ochib qo‘ymaslik, qalampirni qo‘lga bermaslik, turkiy va eroniy xalqlarda suvni ifloslantirmaslik, suvga tupurmaslik, mo‘g‘ullarda qozondan pichoq bilan go‘sht olmaslik, koreyslar va xitoyliklarda kosadagi ovqatga qoshiqni tiqib qo‘ymaslik);

lingvistik tabular(lug‘aviy birlikning yoki xalq irimi nuqtayi nazaridan, yoki atash noxushlik uyg‘otishi nuqtayi nazaridan muomalada qo‘llanishining taqiqlanishi)” ga ajratiladi.

O‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda evfemizm mavzusida X.B.Qodirova o’zining “Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmdan foydalanish mahorati” nomli dissertasiyasi, “O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm” nomli uslubiy qo‘llanmasi va qator ilmiy maqolalarini yaratdi. Olima o‘z tadqiqotlarida o‘zbek tilida evfemizmlarning tutgan o‘rni, ulardan muloqotda foydalanish usullari xususida to‘xtalib, asarlarda qo‘llanilgan bir qator evfemizmlar tahlilga tortilgan.

Sh.K.Shamsiyeva xitoy va o‘zbek tillaridagi maishiy evfemizmlarning lingvomadaniy tadqiqi ustida ilmiy ish olib borgan bo‘lsa, Sh.K.G‘ulomova “O‘zbek tili evfemizmlarining gender xususiyatlari”ni yoritib bergan. Hozirgi kunda N.I.G‘aybullayeva o‘zbek tilida “Tibbiy evfemizmlar” mavzusida o‘z izlanishlarini davom ettirmoqda. Evfemiya hodisasining vazifasi va shaklanish usullari yuzasidan tadqiqot olib borgan olimlarni uch katta guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

Birinchi guruhga evfemizmlarni qo‘pol va noxush deb hisoblangan, so‘z va iboralarni yumshatish vazifasini bajaradi, deb ta’kidlagan olimlar kiritilgan:

1. D.Nimov va K.Silver: “Evfemizmlar – noxush haqiqatni berkitish maqsadida qo‘llaniluvchi neytral so‘zlardir” .

2. A. Spears: “Evfemizm – aytilishi noo‘rin, noxush bo‘lgan so‘z yoki ibora o‘rniga boshqa o‘rinli bo‘lgan so‘zni qo‘llash” .

3. S.Mametov va Z.Kulumbayeva: “Aytilishi noxush bo‘lgan, muomala qoidalariga uyg‘un bo‘lmagan qo‘pol, xunuk so‘zlarning o‘rniga boshqa so‘zlarning qo‘llanilishiga evfemizm deyiladi” .

4. X.Fauler: “Evfemizm – qo‘pol va noxush bo‘lgan haqiqat o‘rnida qo‘llaniluvchi muloyimroq, noaniq iboralardir” .

5. R Keys: “Evfemizm – noxush, haqoratli yoki qo‘rquv uyg‘otuvchi so‘zni boshqa yumshoqroq termin bilan almashtirib qo‘llash usulidir” .

6. I.P.Galperin: “Evfemizm – noxush so‘z va iborani nisbatan o‘rinli bo‘lgan so‘z yoki ibora bilan almashtirish” .

Ikkinchi guruh tasniflovchilarda evfemizmlarning ijtimoiy funksiyalari muhimligi e’tiborga olingan:

1. E.Partridj: “Evfemizm – tinglovchiga noxush ta’sirni kamaytirish yoki so‘zlovchining yaxshi taassurot qoldirish maqsadida qo‘llaniluvchi iboralardir” .

2. A.Katsev: “Evfemizm – axloqiy va diniy motivlardan kelib chiqqan holda qo‘rqinchli, uyatli so‘zlarni o‘rnida qo‘llaniluvchi, yumshatish ta’siriga ega bo‘lgan so‘z va iboralardir” .

3. L.Krisin: “Evfemizm muloqotda kommunikativ konfliktlardan qochish, tinglovchida kommunikativ diskomfort hissini uyg‘otmaslik maqsadida qo‘llaniladi” .

4. E.Tyurina: “Evfemizmlar ma’lum sabablarga ko‘ra, nisbatan o‘rinli deb hisoblanuvchi so‘z va iboralar bo‘lib, ular so‘zlovchi uchun jamiyatda

qabul qilingan axloq normalari nuqtayi nazaridan taqiqlangan, noo‘rin, qo‘pol so‘zlar o‘rnida qo‘llaniladi” .

Uchinchi guruhga kiruvchi ta’riflarda evfemizmning ma’lum bir tushunchani niqoblash vazifasi e’tiborga olinadi:

1. J.Lourens: “Evfemizm fikrni (ma’lum sabablarga ko‘ra,) yumshatilgan, qog‘ozga o‘ralgan holda ifoda etishdir. Ko‘p hollarda bu yumshatish faqatgina soxta bo‘ladi” .

2. D.Nimov va K.Silver: “Evfemizmlar yoqimsiz haqiqatni yashirish uchun noxush, tahqirli deb sanalgan so‘zlar o‘rnida qo‘llaniluvchi terminlar hisoblanadi” .

Har uchala guruh olimlari tomonidan keltirilgan ta’riflar evfemizmlarning tabiatini to‘liq ochib berishga xizmat qiladi. Umuman olganda, olimlar ishlarida bir xil mohiyat turlicha talqin qilingan, ammo ularning barchasi – “muloqotdagi ziddiyatdan qochishga intilish” kabi umumiy mazmunni turli tomondan to‘ldirish, matn tarkibida qo‘llangan evfemalarni shakliy-mazmuniy jihatdan ochib berishda dasturilamal bo‘lishi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa

O‘zbek va ingliz tillaridagi evfemizmlarning tahlili madaniyatlararo muloqot va til strategiyalarining umumiy manzarasiga oid qonuniyatlarni ochib beradi. Evfemizmlar nafaqat lingvistik vosita, balki lingvistik evolyutsiya dinamikasini va madaniy o‘ziga xoslikni aks ettiruvchi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shu bois jahon va o‘zbek tilshunosligida evfemizmlar va ularning lingvistik xususiyatlari tahliliga oid qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan.

References

1. Allan, K., & Burridge, K. (1991). Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. New York: Oxford University Press.

2. Allan, K., & Burridge, K. (2006). Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. Cambridge: Cambridge University Press.

3. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press.

4. Leech, G. (1983). Principles of Pragmatics. London: Longman.

5. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.

6. Rawson, H. (1981). A Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk. New York: Crown Publishers.

7. Warren, B. (1992). “What Euphemisms Tell Us about the Interpretation of Words.” Studia Linguistica, 46(2), 128–172.

8. Linfoot-Ham, K. (2005). “The Linguistics of Euphemism: A Diachronic Study of Euphemism Formation.” Journal of Language and Linguistics, 4(2), 227–263.